

M. T. Abdullayev, J.Z. Xolmirzayev,
B. A. Hayitov

KASBIY TA'LIM METODIKASI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI

M. T. Abdullayev, J. Z. Xolmirzayev,
B. A. Hayitov

KASBIY TA‘LIM METODIKASI

Navro‘z nashriyoti
Toshkent

UO 'K:55. (012.25).4

KBK: 80.12(5ŷ36)

M-80

**M. T. Abdullayev va boshqalar / "Navro'z" nashriyoti. - Toshkent 2017.
244 bet.**

Mazkur o'quv qo'llanma kimyoviy texnologiya sohasi bo'yicha tayyorlanayotgan bo'lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy ta'lim metodikasi fanidan nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko'maklashish, amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, undan oliy ta'lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, soha tadqiqotchilari ham foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlar 5111000 – Kasb ta'limi (Kimyoviy texnologiya) bakalavriatura yonalishi o'quv dasturi asosida yozilgan. O'quv qo'llanmada uzluksiz ta'limni standartlashtirish asoslari, ta'limning tarbiyaviy xususiyatlari, nazariy ta'lim tizimlari, o'quv rejalashtirish xujjatlari, kasb-hunar kollejlari o'qitish jarayoni, mustaqil ta'limni tashkil etish, o'qitishda ko'rsatma, qo'llanmalar va texnika vositalaridan foydalanish, o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, o'quvchilarning kitob bilan ishlash, talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va baholash, ishlab chiqarish ta'limi asoslari hamda o'quv ustaxonalarida o'qitishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Taqrizchilar:

S. Turg'unov – p.F.d., professor, O'zbekiston
Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi
deputati

Sh. Abdurahmonov – NamMPI "Pedagogika va
pedagogik texnologiyalar" kafedrasida dotsenti, p.f.n.

ISBN 978-9943-381-24-7

© "Navro'z" nashriyoti

© M. T. Abdullayev va boshqalar

Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni yengib bo'ladimi? Bugun biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

I.Karimov,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Bugun hammamiz ko'rib, bilib, anglab turganimizdek, taraqqiyotning “o'zbek modeli” tufayli barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham yuksak muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Mamlakatimizda xalqimizning boy madaniy, tarixiy va ma'naviy qadriyatlari, xalqaro ilg'or tajribalar inobatga olingani holda, zamonning qat'iy talablari, jamiyat hamda shaxsning kelajakdagi ehtiyojiga javob beradigan uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etildi. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi kabi hujjatlar, xalqaro ekspertlarning fikricha, muhimligi, yagonaligi va keng qamrovliligi jihatidan alohida ajralib turadi. Ayni paytda yurtimizda har qadamda mazkur yo'nalishdagi islohotlar natijalarini ko'rishimiz mumkin. Shahar-qishloqlarda zamonaviy o'quv laboratoriya jihozlari, mebellar bilan ta'minlangan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qurildi. Ana shunday ko'rkam ta'lim muassasalari haqida davlatimiz rahbarining 2014 yil may oyida Samarqandda o'tkazilgan “O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada “Men sizlarning ana shu litsey va kollejlarni - bu Samarqandda bo'ladimi, Toshkentda bo'ladimi, olis shahar va tumanlarda bo'ladimi – ana shu o'quv yurtlarini albatta borib ko'rishingizni istardim. Bu kollejlarda eng yuksak zamonaviy talablar asosida bunyod etilgan va barcha jihozlar bilan ta'minlangan” deb ta'kidlaganligi nihoyatda o'rinli bo'ldi.

Jamiyatimizning bunday yangilanishi, hayotimizning tarakqiyoti va istiqboli, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish - zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali kichik mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqazo etmoqda. Shu bois, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirish, tanlagan kasbi bo'yicha bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan kasb-hunar kollejlarda o'quv jarayonini ilg'or, ilmiy-nazariy

jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyot bilan amalda ta`minlash bu sohadagi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri sifatida belgilangan.¹

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta`lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo`nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo`ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan kichik mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi hamda kasb-hunar kollejlari kichik mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa o`z navbatida bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilari, xususan 5111000-Kasb ta`limi (Kimyoviy texnologiya) yo`nalishini bitiruvchi muhandis-pedagoglar uchun ham zamonaviy talablar darajasida o`quv qo`llanmalar yaratish, talabalarning kasbiy ko`nikma va malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo`llanma kimyoviy texnologiya sohasi bo`yicha tayyorlanayotgan bo`lajak muhandis-pedagoglarning kasbiy ta`lim metodikasi fanidan nazariy bilimlarini puxta egallashlariga ko`maklashish, amaliy bilim va ko`nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan bo`lib, undan oliy ta`lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlari o`qituvchilari, soha tadqiqotchilari ham foydalanishlari mumkin.

¹ O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: SHarq, 1998. – B. 39.

1-BOB. “KASBIY TA'LIM METODIKASI” FAN SIFATIDA

Tayanch soʻz va iboralar: taʼlim, yosh avlod tarbiyasi, Davlat taʼlim standartlari, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, kasb, kasbiy taʼlim, kasbiy pedagogika, malaka tavsifnomasi, kasbiy tayyorgarlik, standartlashtirish, standart, tarbiya, faollik.

1.1. Taʼlim - Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yoʻnalish

Mamlakatimizda demokratik islohotlar izchillik bilan amalga oshirilayotgan hozirgi davrda davlatimiz rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlari va bu taraqqiyotning kelgusi bosqichlari mazmun-mohiyatini yosh avlodga anglatish mamlakatimiz maʼnaviy hayotidagi muhim va dolzarb boʻlgan vazifalardan biridir. Binobarin, endilikda taraqqiyotni taʼminlashda bugungi navqiron avlod hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Oʻzbekiston mustaqil boʻlgan dastlabki kunlardan boshlab taʼlim tizimini isloh etishga katta eʼtibor qaratildi va bugungi kunga kelib taʼlim sohasida erishilgan yutuqlarimizga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu borada erishgan yuksak marralarimiz koʻz oʻngimizda gavdalanadi. Mazkur yutuq va marralarni qoʻlga kiritishimizga albatta, mehnatkash xalqimiz, davlat rahbari va xukumatimizning tinimsiz saʼy-harakatlari sabab boʻldi.

Mustaqillik arafasida respublika xalq taʼlimi tizimida murakkab muammoli vaziyat xukm surib turar edi. Mazkur muammo I.A.Karimovning 1989 yilning 25 oktyabrida Oʻzbekiston Oliy Sovetining XI sessiyasida soʻzlagan nutqida ham oʻz aksini topdi. Oʻsha paytlardayoq I.A.Karimov kadrlar tayyorlash ishiga muhim eʼtibor qaratib, quyidagi fikrlarni bildirgan edilar: “Agar, iqtisodiyotimiz baquvvat boʻlsa, yaxshi rivoj topsa, bundan madaniyatimiz ham madad oladi, rivoj topadi. Agar ertangi kunimizni oʻylab ish qilmoqchi boʻlsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qaygʻuradigan boʻlsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo oʻzgartirishimiz kerak. ... Aytish kerakki, kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qoʻllab-quvvatlamasdan, oʻylaymanki, biron-bir sohada ahvolni xech qanaqa tarzda oʻzgartirib boʻlmaydi”².

Koʻrinib turibdiki, oʻsha davrdayoq respublika taʼlim tizimi mazmunan isloh etilishi, tizimli ravishda davr talablariga moslashtirilishi moddiy-texnik bazasi yangilab boyitilishi va takomillashtirilishi zarurligi ayon boʻlgan edi. Mamlakatimiz prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun va oʻz koʻlami, mukammalligi va maqsadlariga koʻra beqiyos boʻlgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi ushbu sohada boshlangan chuqur islohotlarning ibtidosi boʻldi.

Taʼlim Oʻzbekistonda shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi rivojlanishning ustuvor sohasi deb

² 2. Karimov I.A. “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. - T. “Oʻzbekiston”, 2011. - 70-71-betlar.

qonunan e'tirof etildi. Milliy dasturimizning xos jihati shundaki unda yaxlitlik va tizimli yondoshuv aks etgan bo'lib, bunda shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish yagona jarayonning tarkibiy qismlaridir. U mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalari va hayot jabhalari uchun yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim, fan va ishlab chiqarish, yoshlarning ma'naviy, axloqiy tarbiyasini samarali birlashtirishni ta'minlash, shuningdek, kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatidagi ta'lim tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish vazifalarini hal qiladi.

Jamiyatdagi yangilanish jarayoni yoshlar tarbiyasida ham yirik o'zgarishlar qilishni talab kila boshladi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan sivilizatsiyalashgan demokratik jamiyat qurishga o'tish tarbiyadagi eski an'anaviy qarashlarning ayrimlaridan voz kechishga, hayotga mos bo'lgan milliy xususiyatlarni o'zida aks ettirgan tarbiyaviy ishlar uslublarini izlab topishga turtki berdi. Endi o'quvchi-yoshlar ongiga milliy madaniyatimiz, xalqimiz tarixi, milliy an'analarimiz, urf-odatlarimizni to'liqroq singdirishga, ularni boshqa xalqlar madaniyatiga yaqinlashtirish, ularda millatlararo munosabatlar madaniyatini, birgalikda faoliyat ko'rsatish amaliyotini vujudga keltirishga asosiy e'tibor qaratildi.

Qonun orqali fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquq asoslari belgilanib, har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlari ta'minlandi. Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb e'lon qilindi va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi; akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi; ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; davlat ta'limi standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish; ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirishdan iborat asosiy tamoyillari belgilab berildi.

Bu dasturni qabul qilib, uni hayotga tadbiiq etishdan maqsad-ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahlokiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iborat edi³.

Undagi maqsad va vazifalarni bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarilishi ko'zda tutildi. Birinchi bosqich vazifalarini 4 yil davomida (1997-2001 yillar), ikkinchi bosqich vazifalarini 2001-2005 yillarda, uchinchi bosqich vazifalarini esa 2005 yildan keyingi yillarda amalga oshirish belgilab berildi.

Darhaqiqat 1997 yildan buyon ta'lim sohasida zalvorli ishlar amalga oshirildi. Xususan, bugungi kunda ta'lim tizimi uzluksiz shaklga ega bo'lib, uning har bir

³ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "SHark" 1997. 10-b.

bosqichi ham mazmunan, ham mohiyatan bugungi davr talabiga mos ravishda taraqqiy etib bormoqda.

Albatta, bu bilan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar yakun topmaydi. Zero, biz bugun globallashuv davrida yashamoqdamiz. Bashariyat, texnika-texnologiya katta tezlikda rivojlanmoqda. Globallashuv bilan bir qatorda, axborot va g'oyaviy xurujlar shakli va ko'rinishlari ko'paymoqda. Shu bilan birga, milliy o'zlik, milliy mentalitet va o'ziga xoslik jihatlarini ta'lim va tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi ham zarurdir. Chunki, aynan shu omillar mafkuraviy immunitetning ayrim jihatlarini o'zida ifoda etadi. Davr yosh avlod tarbiyasida mazkur jihatlarining barchasini e'tiborga olishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, mamlakatimizdagi ta'lim tizimi keyingi yillarda ham doimo zamon talablariga mos ravishda taraqqiy etib boraverishi zaruriy holatdir. Zero, biz ta'lim tizimini rivojlantirar ekanmiz, kelajakda jamiyatimizni eng oliy qadriyatlar va xalqimiz istaklari yo'lida taraqqiy etishini ta'minlaymiz. Qolaversa, dunyo taraqqiyoti ham bir joyda to'xtab qolmaydi. Shuning uchun, ta'lim tizimini doimo isloh etish, o'qitish usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitish bugungi kunning muhim talabidir. Bu esa o'z o'rnida zamonaviy pedagog-kadrlarni tayyorlash jarayoniga va ularning malakasiga bo'lgan talablarni kuchaytirishni talab etadi.

1.2. Kasbiy ta'lim metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida bir qator qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi. Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi bo'lib, milliy ta'lim tizimini ifoda etgan va ta'limning o'zbek modeliga xos davlat ta'lim standartlari (DTS) ishlab chiqildi va amaliyotga kiritildi. Fan va texnika jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Bunday sharoitda har bir soha vakili zamon talabiga hamohang, qadamba-qadam faoliyat yuritishi tabiiy. Ayniqsa o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida ishlayotgan rahbar va pedagog xodimlar bu borada ikki karra ildamroq harakat qilishi lozim. Zero, mazkur ta'lim muassasalarida ertangi kun egalarini kasb-korli qilish orqali ular kelajagiga tamal toshi qo'yiladi. Tizim kadrlari har tomonlama zamonaviy fikrlashi, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi hamda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashi, o'z ustida tinimsiz ishlashi zarur. Ana shunday kadrlarni tanlash, malakasini oshirish, qayta tayyorlash va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash dolzarb masala. Prezidentning 2012 yil 28 maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ushbu masala nechog'li ahamiyatli ekanini bildiradi⁴.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi" NMIU. -2013. 147,151 bet

Kasb-hunar kolleji muhandis-pedagog xodimlari oldiga tayyorlanadigan malakali ishchi kadrlarda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak mehnat intizomi va madaniyatni, jamoa oldidagi burch his tuyg`ularini tarbiyalash vazifasini qo`yadi.

Bu vazifalarni bajarish ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyadan foydalana oladigan yuqori malakali ishchilarni yetishtirish demakdir.

Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda muhandis-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlardan muttasil foydalana bilishlari, o`quv jarayonida ilg`or pedagogik va ishlab chiqarish ta`limi tajribalarini tadbiiq eta olishlari katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarni hal qilishda kasbiy ta`lim metodikasi fani katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy ta`limi metodikasi – shaxsda ijtimoiy hayotning ma`lum sohasida faoliyat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmoqlaridan biridir.

Kasbiy ta`limi metodikasi talabalarning pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko`nikmalarini amalda tadbiiq etish, kasb-hunar kollejlarda umumkasbiy va maxsus fanlar bo`yicha dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari va metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, ularni tayyorlashni o`rgatuvchi fan hisoblanadi.

Fanni o`qitishdan maqsad – talabalarga kasbiy ta`lim bo`yicha yo`nalishning Davlat ta`lim standartida belgilangan hajmdagi bilimlarni berishdan iborat. Shuningdek, kasb-hunar kollejlarda o`quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarish tamoyillarini mustaqil yecha oladigan kasb egalarini tayyorlashdir.

Fanning vazifasi – talabalarga kasbga oid tayyorgarlik mazmuni, o`quv me`yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish, darslarni tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishiga asoslangan mashg`ulotlar o`tkazishga o`rgatishdan iborat.

Kasbiy ta`lim metodikasi o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– ta`lim tamoyillarining mutaxassislik fanlariga tegishli tomonlarini chuqur bilib olishi, kasb ta`limi (kimyoviy texnologiya) yo`nalishi bo`yicha bakalavr texnologlarga tegishli Davlat standartlari talablari, o`quv rejalari, fan dasturlari bilan to`la tanishishi hamda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarining asosiy mazmuni haqida tasavvurga ega bo`lishi;

– mutaxassislik fanining o`ziga xos jihatlarini aniqlay olish, darslarni rejalashtirish, kalendar reja tuzish, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishini rejalashtirish, o`quv-uslubiy, ilmiy-texnik adabiyotlarning turlari va tuzilishini bilishi shart. Shuningdek, o`quv-uslubiy adabiyotlarga qo`yiladigan talablar bilan tanishishi, ilmiy-texnik maqolani uslubiy tahlil qilishi, fanni o`qitishning faol usullarini qo`llash layoqatiga ega bo`lishi o`qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

– o`quv–uslubiy adabiyotlarni ishlab chiqishning o`ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, texnik adabiyotdan matn bo`lagini o`qib tushunish va tahlil qilib, u haqda o`z fikrini aytish, texnik adabiyotda yo`l qo`yilgan metodik kamchiliklarni topa olish, mutaxassislik fani uchun didaktik material tayyorlash, dars jarayonini tahlil qilish, amaliyot turlariga tavsif berish, har bir amaliyot turining maqsad va vazifalarini, o`ziga xos jihatlarni aytib bera olish, talabalarga mutaxassislik fani bilimlarini singdirish usullarini qo`llash, talabalarga tarbiyaviy ta`sir o`tkazish usullari bo`yicha ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi kerak

1.3. “Kasbiy pedagogika” atamasi va kasbga oid tayyorgarlik mazmuni

Kasbiy pedagogika – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo`lib, u tarbiya, ta`lim, o`qitish haqida qator nazariy va amaliy ma`lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug`ullanadi. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi bir necha bo`limlarga bo`linib, bu bo`limlarda kasbiy pedagogikaning asoslari va muhim masalalarini, ya`ni kasb-hunar ta`limi yo`nalishlari, mehnat pedagogikasi, kasb-hunar didaktikasi kabi masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari, kasb-hunar ta`limi nazariyasi hamda uning huquqiy asoslarini o`rgatadi

Kasbiy pedagogika – kasb-hunar ta`limi o`quv yurtlari o`quvchilarining ta`limi, tarbiyasi, o`qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o`rganadi, ta`lim va tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`lash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta`limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimi asoslaydi. U pedagogik nazariyalar to`g`risidagi bilimlarni, innovatsion texnologiyalarni loyihalash uslublarini umunilashtiradi.

Kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg`or usullar va yo`nalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o`zining keng tatbiqini kutayotgan, boshqa fan sohalari bilan bog`liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasbiy pedagogika umumiy pedagogika fanining tarmog`i sifatida kasbiy-texnik ta`lim tizimining takomillashish jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko`plab tushunchalari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo`lgani kabi kasbiy pedagogika o`z kategoriyalari va tushunchalariga, sifat ko`rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

Malaka tavsifnomasi – bo`lajak mutaxassisning bilimi, kasbiy saviyasiga qo`yiladigan asosiy talablar mujassamlashgan me`yoriy hujjatdir.

Malaka tavsifnomasi – Oliy o`quv ta`limini qayta islohot etishga qaratilgan qarorlar, xodimlar tayyorlashdagi milliy dastur va standartlar asosida tuziladi. Unda mutaxassisning u yoki bu kasbiy faoliyati – ishi dasturida uni ongli va to`g`ri bajarishi uchun egallashi zarur bo`lgan bilimlar majmuasi ifodalanadi. Unda kasb va ixtisosliklarning aniq nomlari, texnik va maxsus bilimlar, mehnat ko`nikmasi va malakalari, malakani oshirish va uni yangilash bo`yicha yo`l-yo`riqlar ifodalangan. Bu hujjatlar o`quv rejasi va dasturlarini tuzishda asos bo`ladi, shuningdek bitirish imtihonlarida o`quvchilarning bilimlarini sifatli aniqlash uchun xizmat qiladi.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3234> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3234> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3234>